

ABDULLA QAHHORNING “DAXSHAT” HIKOYASI ASOSIDA ISHLANGAN “UNGIN” VIDEOFILMIDAGI AYOLLAR TAQDIRIGA CHIZGILAR

Nozila Siddikova Qahramon qizi

Texnologiya, menejment va kommunikatsiya institutining (TMCI)

Talabasi Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: “Daxshat” hikoyasida o’sha zamonlardagi o’zbek ayollari, ayniqsa, ayollarga qanchalik qiyin, og’ir bo’lgani o’z ifodasini topgan. Ayollarning qadr-qimmatini yaxshilash, ularga bo’lgan e’tiborni mehr-muhabbatni kuchaytirish taklif qilindi. Demak, o’sha vaqtlarda ayollar erkin so’zlay olmas, fikrlarini erkin bayon eta olmas edi. Erkaklar esa go’riston orqali o’zlarini mard qilib ko’rsatishga urinishgani haqida xulosa berilgan.

Kalit so’zlar: xotin-qizlar, ayol, kundoshlik, mojaro, fikr bildirish, qadr, hikoya, daxshat, qo’rquv, zamon.

Buyuk yozuvchi, Abdulla Qahhorning hikoyalar to’plamidan olingan "Daxshat" yoxud "Ungin" nomli hikoyasini o’qiganimdan keyin judayam hayron qoldim va ta’sirlandim. Chunki XX asrda yozilgan ushbu hikoyadagi hodisalar, hozirgi kunga kelib dolzarb muammoga aylangan. Qadimgi zamonda ham ko’p xotinlik, zo’ravonlik, qashshoq oilalardagi qarzlilar tufayli erga bermoq, yosh qizlarni majburan sotib yuborish, ularning orzulari, maqsadlarini inobatga olmaslik kabi muammolar ko’pchilikni bezovta qilgani aks ettirilgan. Hozirgi vaqtda ham shu ko’rinishdagi zo’ravonliklar yosh qizlarning boshiga tushib ularni qiynamoqda. Ota-onalar o’z qiziga rahm qilmay ularni majburan, o’zlarining manfaatlarini yo’lida foydalanib, farzandlarining baxtiga va umriga zomin bo’lishmoqda. "Ungin" hikoyasi ham aynan shu muammolar haqida.

Ushbu hikoyada Olimbek dodxohning sakkizta xotini bo’lib, sandal atrofida o’tirishar edi. Ikki haftadan buyon kuchli ko’z ochirmaydigan shamol esayotgan edi. Bu orada hammaning hayoliga daxshatli qabristonning bunday shamolli kunda ko’rinishi ko’z oldiga kelar edi. Dodxoh qabriston haqida o’ylashdan ham qo’rqar edi. Lekin buni hech ham xotinlariga ko’rsatgisi kelmasdi. Bir dam Dodxohning katta xotini Nodirmohbegimning esiga yoshligida bo’lgan hodisa esiga tushib aytib beribdi. Aytishicha, bir kuni, bir guruh erkaklardan biri kim Asqad ponsodning qabriga borib pichoq sanchib kela oladi desa, biri qo’lini ko’tarib men debdi va bitta qo’ydandan garov bo’g’lashibdi. Shundan keyin o’sha kishi aytilgan qabr yoniga borib pichoqni cho’ponini etagi bilan qo’shib sanchgan ekan. Ortga qaytaman deganida uni kimdir go’rga tortayotganday bo’libdi. Va u odam qo’rqanidan yuragi ko’tarolmay qabr oldida joni uzilibdi. Shu voqeadan keyin qabriston haqida ko’p mish-mish gaplar tarqalishni boshlabdi.

Dodxohning eng kichik, kelin bōlganiga endigina besh oy bōlgan xotini gap boshlabdi. Uning aytishicha, garov boğlagan kishining hayoti bir qōyga arziyas ekan. Bu gapini eshitgan Dodxoh asabiylashib, uni shu ishni qilishiga arzigulik narsalarni taklif qilishni boshlabdi. Avval ōnta keyin esa yuzta qōy taklif qilibdi. Xotinidan javob kelmagach u ōzining yarim mol davlati evaziga shu ishni qilishiga taklif beribdi. Unsin unga mol davlat kerakmasligini, kerak bōlganida ham bitta emas borib ōnta qabrga pichoq sanchib kela olishini aytibdi. Ammo unga ozodlik, ōz ota-onasini oldiga qaytgisi kelayotganini aytganida Dodxoh boshida tushunmabti. yosh kelinchak erining qamchilaridan bezor bōlib ketganidan undan qōrqib javobini berishini sōrabti. Eri biroz ōylab, vaqt ōtgandan keyin rozilik beribdi. Lekin u shartlarni ōzgartiribdi. Dodxoh ōylab-ōylab xotiniga qabristonga borib unga choy qaynatib kelishini buyuribdi. Unsin xotirjam bōlishi uchun eri unga bir taloq qōyib chiqarib yuboribdi. Yarim kechasi yosh juvon choynak kōtarib qabriston tomonga ketayotib qo'rqishni boshlabdi. Q'rquvini yengish uchun u ota-onasi oldiga qaytishini, qarindoshlari va yaqinlarini oldiga butunlay zolim eridan qutilib borishini ōylab, hayol surib ketibdi. Ammo birdaniga qōrqinchli ovoz uni hayolini chalğitib, e'tiborini tortibdi. U yōlida davom etibdi. Eri aytgan qabr yoniga kelib choy qaynatishni boshlabdi. Qo'rqganidan zir-zir titrab bir gapni qayta-qayta aytishni boshlabdi. Bu orada esiga qabristondan hech kim tirik qaytmagani esiga tushib uni yanada qo'rquvini oshibdi.

Vaqt ōtib choy qaynagach, Unsin choynagini to'ldirib uyiga yōl olibdi. Shoshib yurib qabristondan chiqishga urinibdi. Ammo uning yelkasini ustidan kimdir yerga itarib yuborib yiqitganday bōlibdi. Yosh juvon yerga dumalab tushib qo'rqib ketibdi. Orqasiga qarasa Dodxohning maymuni yelkasida turgan ekan. Unsin bu maymun ōzidan ōzi kelmaganini u bilan yana bir necha odam kuzatishga kelganini payqabdi. Boshida hayoliga ham kelmagan edi, orqasidan Dodho odam qōyishi va uni kuzatishini buyurganligi. Chunki Dodxoh Unsinga ishonolmasligi aniq edi va u choyni boshqa yerda damlab kelishi mumkin degan hayol esiga kelgan edi. Unsin judayam qo'rqib vahimaga tushgan edi. U uyiga bazōr yetib kelib eri va Dodhoning katta xotini Nodirmohbegim ōtirgan honaga kirib, choynakni stol ustiga qōygach, judayam qorqgani sabab, Unsin hushini yoqotdi. Katta kundoshi unga achingani va yosh bōlib ōz ozodligi uchun harakat qilgan yoshgina juvonga rahmi kelib unga yordam berishga harak qildi.

Bir oz vaqt ōtib Unsin ōziga keladi. tepasida behalovat ōtirgan kundoshini kōrib hayron bōldi va hayajon bilan ota-onasini gapirishni boshladi. Nodirmohbegim u uchun qabristondan qabriston tuproğini olib keltirib undan choy damlatibdi. Shifo bōlishi uchun hamda qabristondan qōrqgan odamga qabriston tuproği darmon bōlishi uchun uni kichik kundoshiga ichirdi. Ōziga kelgan Unsin Nodirmohbegimdan Ganjiravonga bir insonni Unsinni ota- onasini oldiga borib qizini ortga qaytayotganini habarini ertaroq yetkazishni xohlashini atdi. Uning hayolida kimdir borib aytsa ota-onasi hursand bōlib, bir oz bōlsa ham vijdonini qiynashni tōxtqtishadi deb ōylagandi. Nodirmohbegim

eridan qamchi yiyishidan qōrqmay Unsinni uyiga odam yubordi. Hikoyaning yakunida Unsin ōlgach shuni aytish kerak, Dodho bir yosh, beğbor, kuchsiz kizning uvoliga qolganini kōrsak bōladi. Bu kabi holatlarni kōrish achinarli chunki mehirsiz odamlar tufayli, qizlar juda ham kōp aziyat chekishgan va hozirgi kunda ham shunday. Yuqorida keltirilgan hodisada Unsin ozod bōlishi, besh oydan beri qiynalib yurib, fursat bōlganida ozodlikga erishishi mumkin ekanligini kōrsak bōladi. Eri shart bajarilsa qōyib yuborishini eshitgach shoshib qabrison tomon shoshganidan ham bilib olsa bōladi.

Keltirilgan hodisadan shuni tushunish kerak-ki, qadimgi zamonlarda ham huddi hozirgi kundagi dolzarb muammo kōtarilgan. Abdulla Qahhor yozgan hikoyasi bilan shuni aytmoqch bōlgan-ki dolzarb muammolar nafaqat yillar mobaynida balki asrlar davomida shakillanib kelgan. Dodhoga o'xshash odamlar ōz manfaatlari uchun kambağal xalqdan foydalanib ota-onalarning qarzlari bahonasida ularning yosh qizlarini sotishligi evaziga qarzlaridan kechishgan. Sōng ularni asiralari yoki chōrilari qilib foydalanishgan.

Eng yomon tarafi shunda-ki bunday ishlar ommalashib kelgan. Usha vaqtlarda majburan erga tegishlikga qarshi chiqishga yetarlicha pul va kuchga ega bōlishmagan. Shu sababli Dodhoga oxshash odamlar ōz nafslari yōlida kōp hotinlik bōlishni boshalshgan. Qizlarni majburlab uylanish yoki erga berish odatiy hol bōlganidan sōng, zolim kishilar hotinlarini aytganiga kirmaganligi sabab, jazolash maqsadida ularga kuch ishlatishni boshlashgan. Avvaliga ōzlari savalab keginchalik esa qamchi bilan darra urdirishgacha borishadi. Yosh juvonlar bunday jazoga loyiq ish qilmasada jazolangani, darralar zarbini kōtarolmagani sabab, ular hayotdan kōz yumishardi.

Fikrimizcha, A.Qahhor bu hikoya orqali ham, o'sha zamondagi ayollarning dardini ichidagi so'zlarni aytmoqchi bo'lgan va buning uddasidan chiqqan ham. Va yana aytishimiz mumkinki, Unsinni "Kecha va kunduz" asaridagi Zebiga ham o'xshatishimiz mumkin. Zebi ham juda aqli, qobiliyatli, ovozi ham shirali qiz bo'ladi.

Ammo taqdirning taqozosi bilan u Mingboshiga beshinchi xotin bo'ladi, turgan gapki, uni kundoshlari xohlamay uni o'ldirmoqchi ham bo'lishib, boshiga og'ir kunlar tushadi. Faqatgina Zebi yoki Unsin emas, balki ko'pgina oilalarda ham xuddi shunday qiyinchiliklar bo'lgan. Jadidchilik davrining endi boshlanish nuqtasi tasvirlangan har ikkala asarda ham. Ya'ni shu bo'lgan ko'rinadi voqealar o'sha jadid davrini boshlanishiga turtki bo'lgan desak ham bo'ladi. O'sha davrda boylarda ko'p xotinlikni ya'ni xotin ustiga xotin olish juda ko'p bo'lgan ularda. Bu vaqtda shunchalar qiyin bo'lganki hattoki ayollarni odam o'rniga ham ko'rishmagan. Oddiy xalqqa doim past nazar bilan qarashib kelishgan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng aholi hayotini yaxshilashga, eng muhimi xotini-qizlarga o'z erkini qaytarishga kirishilgan. Va hozirda mana bizning ayollarimiz ham dunyo rekordlarini yangilashgacha yetib borishmoqda. Ayollarga yordam pullari ajratilgan. Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan Ayollar daftari, ya'ni bu o'sha nogironligi bor yoki boquvchisi yo'q, ayollar uchun nafaqa pullari ajratilgan daftardir. Bo'sh ish o'rinlari yaratib berilmoqda. Qizlarni

o'qimishli bo'lishlari uchun ko'pgina imkoniyatlar berilmoqda. Shuni misol qilib keltirishimiz mumkinki, magistraturaga kontrakt asosida o'qishga kirgan xotin – qizlarning kontrakt pullari davlat tomonidan to'lab berilishi hozirgi kunda jamiyatda ayollarning qadr-qimmatining, jamiyatda tutgan o'rnining oshib borishi demakdir.

2019-yildan boshlab "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish" to'g'risida qonun qabul qilingan. Ushbu qonun yordamida oldin yolg'a qoyilgan va oldi olinmagan jinoyatlarni bartaraf qilish mumkin. Hozirgi kunda judayam ko'p oilalarda zo'ravonlik ko'paygan. Masalan ko'p xotinlik, majburan erga tegish va zolim kishilarning kaltaklari tagida qolishyapti. Ko'p yosh qizlarning o'zlarini himoya qilishga kuchi yetmaganligi uchun ularning ohirgi qarorlari suistid yoki qochib ketish qaroriga kelishmoqda. Natijada ular yosh umrini hazon qilishayotgandi. Ammo tegishli qonun chiqqandan kegin, davlat ularni o'z himoyasiga olib ularga yordam qolini cho'zdi. Bu qonun ko'p yosh qizlarning hayotini qutqarish va "Unsin" ning hayoti boshqa qizlarda qaytarilmasligi uchun qabul qilinib harakatga tushirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Normatov U. Abdulla Qahorni anglash mashaqqati. Toshkent. „Universitet“, 1999.
2. Qo'chqorov R. Men bilan munozara qilsangiz. -T. Ma'naviyat nashr. 1999.
3. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. — T.: „O'qituvchi“, 1999.